Аннотация: В данной статье рассматривается финансовое планирование как важный компонент системы управления экономикой, напрямую влияющий на социально-экономическое развитие общества. Его основное содержание заключается в направлении имеющихся финансовых ресурсов на конкретные цели, их эффективном использовании и обеспечении экономической стабильности. Благодаря финансовому планированию гармонизируются государственный бюджет, финансы предприятий и доходы населения, обеспечивается пропорциональность в распределении ресурсов и создаются возможности для развития приоритетных направлений.

При этом социальная значимость финансового планирования проявляется в повышении уровня и качества жизни населения, поддержке социальных секторов (образование, здравоохранение, инфраструктура и др.), сокращении бедности и обеспечении занятости. В экономическом плане оно служит макроэкономической стабильности, улучшению инвестиционного климата и повышению конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: финансовое планирование, социально-экономическое содержание, экономическая стабильность, государственный бюджет, распределение ресурсов, инвестиции, занятость, сокращение бедности, уровень жизни, конкурентоспособность.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimda moliyaviy rejalashtirish jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U nafaqat davlat budjeti yoki korxona moliyasini boshqarish vositasi, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, avvalo, resurslarni oqilona taqsimlash, ulardan samarali foydalanish hamda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, u aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy sohalarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va boshqalar) qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash va qashshoqlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, moliyaviy rejalashtirish davlat, biznes va jamiyat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni muvofiqlashtiradi, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro iqtisodiy jarayonlarga samarali integratsiyalanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy rejalashtirish masalasi bo'yicha MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinsa, bu borada Bondarenko T.G. va A.U. Soltaxanovlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, "zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning asosiy elementi bo'lib, u biznesni xavf va noaniqlikdan himoya qilishga yordam beradigan kompaniya boshqaruvining umumiy mexanizmining bir qismidir" [1].

S.P. Visharning ilmiy tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. U moliyaviy rejalashtirishni boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib, "moliyaviy rejalashtirish umumiy moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, u o'z navbatida korxonaning umumiy boshqaruv tizimining asosiy elementi hisoblanadi, rejalashtirish esa umumiy strategiyadan tashqarida mavjud bo'la olmaydi" deya ta'kidlaydi [2].

S. Demin, A. Zinchenko va M. Cherkasovlarning mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy rejalashtirish xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy jihatdan qimmatli hisoblanadi. Ular mashinasozlik korxonalari uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmini taklif etadilar [3].

Moliyaviy rejalashtirish bo'yicha olimlar I. Zaysevaning tadqiqotlari ham ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbdir. U moliyaviy rejalashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlab, "bu shunchaki budjet hisobi emas, balki pul oqimlarini boshqarish, qarzlarni to'lash va korporatsiyaning moliyaviy siyosatini strategik shakllantirishga xizmat qiladigan qarorlar qabul qilishning kalitidir. U keng qamrovli, kelajakka yo'naltirilgan va moslashuvchan reja bo'lib, tashqi qiyinchiliklarga chidamli tizimni yaratadi" deya izohlaydi [4].

O. Laenko o'z tadqiqotlarida rejalashtirish va prognozlash o'rtasidagi farqni aniq belgilab beradi. Uning fikricha, rejalashtirish — resurslarni shakllantirish va taqsimlash bo'yicha boshqaruv faoliyati bo'lsa, prognozlash — ixtisoslashtirilgan usullar yordamida kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashdir [5].

Yu.S. Nexaychuk va A.P. Borisovskaya esa moliyaviy rejalashtirishni "iqtisodiy faoliyatni ta'minlash uchun moliyaviy resurslar manbalarini hamda ulardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash usullari va vositalari majmui" sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, moliyaviy rejalashtirish naqd pul oqimlariga qaratilgan, strukturaviy va uslubiy jihatdan qurilgan, bozor va mijozlarga yo'naltirilgan, barqaror va uzoq muddatli faoliyatni ta'minlaydigan jarayondir. Shuningdek, u tahlildan nazoratgacha bo'lgan protsessual bosqichlarni qamrab olib, moliyaviy rejalashtirishni faqat buxgalteriya hujjati emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida shakllantirishni taqozo etadi [6].

Iqtisodchi olimlar V. Yankovskaya o'zining "Korxonalarda rejalashtirish" darsligida rejalashtirishni maqsadlarni belgilash, vositalarni aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularga erishish yo'llarini ta'minlash jarayoni sifatida yoritadi. Unga ko'ra, "moliyaviy rejalashtirish jarayoni murakkablik, motivatsiya, prognozlash, xavfsizlik, muvofiqlashtirish, nazorat va o'qitishga qaratilgan tizimli boshqaruv funksiyasidan iboratdir. Moliyaviy rejalashtirish — moliyaviy resurslar va pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha kelajakdagi harakatlarni aniqlash jarayoni" hisoblanadi [7].

Kazmina I.V., Smolyaninova I.V. va Shchegoleva T.ning fikriga ko'ra, korporativ moliyaviy rejalashtirish — bu barcha faoliyatni ichki va tashqi muhit tomonidan shakllantirilgan moliyaviy imkoniyatlar va cheklolarga moslashtirish orqali tashkilotning barqaror ishlashini ta'minlash jarayonidir [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini o'rganish uchun birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar manbalari qo'llanildi. Birlamchi ma'lumotlar sifatida so'rovnomalar, intervyular va amaliy kuzatuvlar orqali kompaniya va ijtimoiy subyektlarning moliyaviy faoliyati tahlil qilindi. Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida statistik hisobotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar solishtirma va



sifatli-tahliliy usullar yordamida o'rganilib, moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni aniqlashga yo'naltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi nazariy tahlillardan ko'rinib turibdiki, davlat darajasida ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish mamlakat taraqqiyotini strategik boshqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. U iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda kompleks yondashuvni ta'minlaydi, resurslarni ustuvor yo'nalishlarga jamlaydi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu jarayonda moliyaviy rejalashtirish ham muhim o'rin tutadi. U davlat, hudud, korxona yoki uy xo'jaligi darajasida moliyaviy resurslarni strategik va taktik jihatdan taqsimlash jarayonini ifodalaydi. Moliyaviy rejalashtirish butun moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, daromad va xarajatlar muvozanatini saqlash, risklarni boshqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, moliya tizimi – iqtisodiyotning turli ishtirokchilari o'rtasida pul mablag'larining harakatini ta'minlovchi institutlar, bozorlar, me'yorlar va mexanizmlar yig'indisi hisoblanadi. U o'z ichiga davlat moliyasi, korxona moliyasi va uy xo'jaliklari moliyasini qamrab oladi. Mantiqan aytiladigan bo'lsa, moliyaviy rejalashtirish ham ana shu uch pog'onada amal qiladi, biroq uni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish jihatidan o'zaro farq qiladi.

Moliyaviy rejalashtirish moliya tizimida alohida ahamiyatga ega. Davlat moliyasi darajasida uning asosiy vazifalari davlat budjetini shakllantirish, soliq siyosatini yuritish, resurslarni qayta taqsimlash hamda taqchillik va davlat qarzini boshqarishga qaratilgan. Korxonalar doirasida esa, moliyaviy rejalashtirish investitsiyalarni taqsimlash, daromad va xarajatlarni nazorat qilish, foyda hamda kapitalni rejalashtirishni qamrab oladi. Banklar va boshqa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda u likvidlikni ta'minlash, zaxira va aktivlar daromadlilikini nazorat qilish, shuningdek, risklarni boshqarishga xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari darajasida moliyaviy rejalashtirish daromadlar, jamg'armalar, kreditlar, xarajatlar va moliyaviy maqsadlarni boshqarishga yo'naltiriladi. Xalqaro miqyosda esa, to'lov balansi, valyuta siyosati, tashqi qarz va xorijiy sarmoyani boshqarish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni shakllanish tarixi XIX asrning ikkinchi yarmi – industrial revolyusiyadan so'ng Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy jarayonlar murakkablashgan davrga borib taqaladi. Yangi sanoat korxonalari va moliya muassasalari paydo bo'ldi. Bu holat davlatning moliyaviy resurslarni rejali taqsimlashga va xarajatlarni hisobga olishga ehtiyojini oshirdi.

Germaniya (1870–1880-yillar) – ijtimoiy moliyaviy rejalashtirishning boshlanishi O. Bismark islohotlari natijasida yuzaga keldi. Ijtimoiy sug'urta tizimi (pensiya, kasallikka qarshi sug'urta, ishsizlikdan himoya) joriy etildi. Bu birinchi marta moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy yo'nalishini ko'rsatdi. Davlat budjetida xarajatlar strategik yo'nalishlar bo'yicha taqsimlana boshlandi.

Fransiya va Angliya davlatlarida (XIX asr oxiri – XX asr boshi) davlat budjeti orqali soliqlar yig'imi va xarajatlarni rejali taqsimlash tizimi yo'lga qo'yildi. Moliyaviy rejalashtirish asosan infratuzilma, armiya va ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirildi. Angliyada moliya vazirligi budjet rejasi orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga harakat qildi.

AQShda (XX asr boshi – 1930-yillar) 1929-yildagi Buyuk inqirozdan keyin moliyaviy rejalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy mazmunda yangi bosqichga ko'tarildi. F. Ruzveltning "Yangi kurs" siyosati orqali budjet xarajatlari yordamida ish o'rinlari yaratildi, ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimi rivojlandi, davlat investitsiya dasturlari moliya orqali rejali tarzda amalga oshirildi.

Sobiq ittifoq davlatlarida (1920–1930-yillardan boshlab) markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot tizimida moliyaviy rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etdi. Davlat budjeti iqtisodiy va ijtimoiy resurslarni taqsimlashning asosiy vositasi bo'ldi. Barcha korxonalar va tarmoqlar davlat rejasi asosida moliyaviy resurslar bilan ta'minlandi. Bu moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini eng qat'iy va markazlashgan shaklida namoyon etdi.

Ikkinchi jahon urushi va keyingi davr (1940–1970-yillar) Yevropa mamlakatlarida "farovonlik davlati" konsepsiyasi vujudga keldi. Moliyaviy rejalashtirish asosida sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoya tizimlari davlat xarajatlari hisobidan moliyalashtirildi. Soliq tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun qayta yo'naltirildi. Bu davrda Shvesiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada ijtimoiy yo'naltirilgan moliyaviy rejalashtirish yuqori bosqichga chiqdi.

XX asr oxiri – XXI asr boshida globalizatsiya jarayonlari natijasida moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni kengaydi. Davlatlar nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikka, balki xalqaro moliya bozorlari, valyuta siyosati, tashqi qarz va sarmoyani rejali boshqarishga ham alohida e'tibor qarata boshladi.

Bugungi kunda moliyaviy rejalashtirish:

- budjet siyosatini,
- ijtimoiy dasturlarni,



- infratuzilma investitsiyalarini,
- davlat–xususiy sheriklikni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda:

Birinchi bosqich – XIX asr oxirida Germaniya, Fransiya va Angliya davlat moliyasida ijtimoiy yo‘nalish paydo bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich – XX asr boshida AQSh va Yevropa mamlakatlarida moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy inqirozlarni yengib o‘tish vositasiga aylandi.

Uchinchi bosqich – SSSRda markazlashtirilgan iqtisodiyot tizimida moliyaviy rejalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy mazmunning eng kuchli namoyonida ifodalandi.

To‘rtinchi bosqich – Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat modellari (farovonlik davlatlari) moliyaviy rejalashtirishni jamiyat rivojlanishining asosiy vositasiga aylantirdi.

Hozirgi bosqich – XXI asrda moliyaviy rejalashtirish davlatning global iqtisodiy integratsiyadagi maqsadlarini belgilash va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning eng muhim tizimi hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bosqichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar	Asosiy xususiyatlar	Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni
1.	1-bosqich: Sovet davri	1924–1991	Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot, besh yillik rejalar, Moskva orqali boshqaruv	Sanoatni industrializatsiya qilish, qishloq xo‘jaligini (paxtachilik) rivojlantirish, ijtimoiy soha (ta‘lim, sog‘liqni saqlash)ni davlat hisobidan qo‘llab-quvvatlash
2.	2-bosqich: Mustaqillikning dastlabki davri	1991–2000	Milliy moliya tizimini yaratish, milliy valyuta (so‘m) joriy qilinishi, Moliya vazirligi mustaqil faoliyat yuritishi	Iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlash, davlat budjeti orqali ijtimoiy himoya, soliq tizimini shakllantirish
3.	3-bosqich: Barqarorlik va islohotlar davri	2000–2016	Milliy dasturlar (“Kadrlar tayyorlash dasturi”, “Sog‘lom avlod uchun”), soliq siyosatini bosqichma-bosqich isloh qilish	Infratuzilma loyihalari moliyalanishi, aholining turmush sifatiga e‘tibor, iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash
4.	4-bosqich: Yangi taraqqiyot bosqichi	2017–hozirgacha	Harakatlar strategiyasi” (2017–2021), “O‘zbekiston–2030 strategiyasi”, ochiq budjet, davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	Soliq tizimini soddalashtirish, shaffof budjet, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xorijiy sarmoya va tashqi qarzlar orqali iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash

O‘zbekistonda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni markazlashtirilgan rejali tizimdan mustaqil milliy tizimga, undan esa strategik rivojlanish dasturlariga tayangan, shaffoflik va bozor mexanizmlariga asoslangan tizimga evolyutsiya qildi (1-rasm).

O‘zbekistonda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bosqichlari (Timeline)



1-rasm O‘zbekistonda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bosqichlari



Quyidagi 1-rasm ma'lumotlarida O'zbekistonda moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni tarixiy jarayon sifatida turli bosqichlarda rivojlanib kelgani ko'rsatilgan.

Sovet davri (1924–1991) – Bu bosqichda moliyaviy rejalashtirish markazlashtirilgan tizimga tayanadi. Besh yillik rejalalar, davlat budjeti va resurslarning taqsimlanishi Moskva tomonidan belgilanardi. Uning ijtimoiy ahamiyati sanoatni industrializatsiya qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ijtimoiy sohalarni davlat hisobiga ta'minlashda namoyon bo'lgan.

Mustaqillikning dastlabki davri (1991–2000) – Mustaqillik bilan birga milliy moliya tizimi shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mustaqil faoliyat yuritdi, milliy valyuta – so'm joriy etildi. Bu davrda moliyaviy rejalashtirishning asosiy mazmuni iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash, davlat budjeti va soliq tizimi orqali ijtimoiy himoyani ta'minlashga yo'naltirildi.

Barqarorlik va islohotlar davri (2000–2016) – Moliyaviy rejalashtirish milliy dasturlar bilan uzviy bog'landi. Iqtisodiy barqarorlikka e'tibor kuchaydi, soliq siyosatida islohotlar amalga oshirildi. Aholining turmush sifati, infratuzilmani yangilash va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Yangi taraqqiyot bosqichi (2017–hozirgacha) – Bu davr moliyaviy rejalashtirishning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirdi. "Harakatlar strategiyasi" (2017–2021) va "O'zbekiston–2030 strategiyasi" moliyaviy rejalashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgiladi. Davlat budjeti ochiq va shaffof bo'ldi, soliq tizimi soddalashtirildi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) keng joriy etildi. Shu bilan birga, xorijiy sarmoya va tashqi moliya resurslari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish muhim maqsadga aylandi.

Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bo'yicha strategik yondashuvlarga quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Institutsional-modernizatsiya strategiyasi

Moliyaviy rejalashtirishning samaradorligi, avvalo, uni amalga oshiruvchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirishga bog'liq. Shu bois:

- Davlat moliyasida normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish, budjet jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;

- Moliyaviy boshqaruv tizimida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish;

- Davlat-xususiy sheriklik institutini keng joriy qilish orqali resurslar diversifikatsiyasini ta'minlash.

2. Axborot-raqamli transformatsiya strategiyasi

- Moliyaviy rejalashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va big data asosida prognozlash modellarini joriy qilish;

- Moliyaviy ma'lumotlarning integratsiyalashgan elektron bazasini shakllantirish;

- Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida raqamli monitoring va nazorat tizimlarini kuchaytirish.

3. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish strategiyasi

- Soliq va budjet siyosatini uzoq muddatli barqaror rivojlanish tamoyillari asosida uyg'unlashtirish;

- Budjet defitsiti va tashqi qarzlarni optimallashtirish;

- Kapital bozorini rivojlantirish, fond birjalari va sug'urta tizimini kengaytirish;

- Xorijiy investitsiyalar va moliyaviy grantlarni jalb etish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish.

4. Ijtimoiy yo'naltirilgan strategiya

- Moliyaviy rejalashtirishda ijtimoiy adolat tamoyillarini kuchaytirish;

- Ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va infratuzilmani ustuvor moliyalashtirish;

- Aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish, aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlarga teng imkoniyat yaratish.

5. Innovatsion va barqaror rivojlanish strategiyasi

- Moliyaviy rejalashtirishning ustuvor yo'nalishlariga innovatsion iqtisodiyot, raqamlashtirish, yashil energetika va barqaror infratuzilmani kiritish;

- Uzun muddatli moliyaviy strategiyalarda klaster yondashuv va hududiy differensiyatsiya asosida samaradorlikka erishish;

- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan integratsiya orqali transmilliy moliyaviy boshqaruv amaliyotlarini joriy etish.

Umuman olganda, moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bo'yicha taklif etilgan strategik yo'nalishlar davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuqori darajada saqlash, ijtimoiy adolat va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish va global integratsiya jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotga ta'siri:

- Makroiqtisodiy barqarorlik – inflyatsiya va budjet muvozanatini ta'minlaydi;

- Resurslarni samarali taqsimlash – investitsiyalar ustuvor yo'nalishlarga yo'naltiriladi;

- Ijtimoiy rivojlanish – ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma qo'llab-quvvatlanadi;



- Biznes va ishbilarmonlik – soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali tadbirkorlik rivojlanadi;
- Innovatsiya va raqobatbardoshlik – “yashil iqtisod” va raqamlashtirishni moliyalashtirishga xizmat qiladi;
- Xalqaro integratsiya – to'lov balansi va xorijiy sarmoyalar barqarorligi ta'minlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, moliyaviy rejalashtirish iqtisodiyotda barqarorlik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Davlat budjetini rejalashtirish – bu kelgusi moliyaviy yilda davlatning daromad va xarajatlarini asosli ravishda baholash va taqsimlash jarayoni bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash hamda ustuvor strategik maqsadlarga erishish uchun muhim vosita hisoblanadi. Uning mohiyati davlat daromad manbalarini (soliqlar, bojxona to'lovlari, transfertlar va boshqalar) aniqlash, ularni ustuvor yo'nalishlarga samarali taqsimlash, qarz mablag'larini oqilona boshqarish va xarajatlarni iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos ravishda shakllantirishdan iborat.

Milliy darajada budjet rejalashtirishning asosiy vazifasi makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, davlat qarzini nazoratda ushlash, ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlash hamda taraqqiyot strategiyalarini moliyalashtirishdan iborat. Shu jihatdan u davlat moliyasining eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Budjet jarayoni esa davlat moliyasini samarali boshqarishda asosiy o'rin tutadi. U budjetni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash, ijro etish va nazorat qilish kabi huquqiy va moliyaviy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Jarayon avval budjet prognozi va loyihasini tayyorlashdan boshlanadi: Iqtisodiyot va moliya vazirligi tahlillarga asoslanib kelgusi yil uchun daromad va xarajatlarni belgilaydi, vazirlik va mahalliy hokimliklar o'z takliflarini kiritadi. Shundan so'ng, budjet loyihasi hukumat tomonidan ishlab chiqiladi.

Davlat moliyasini rejalashtirishda davlat korxonalarida (DK) moliyaviy rejalashtirish muhim o'rin tutadi. U davlat tomonidan belgilangan tijorat hamda ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan moliyaviy maqsadlar, resurslardan foydalanish manbalari va yo'nalishlarini aniqlash jarayoni hisoblanadi. Davlat korxonalarida moliyaviy rejalashtirishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, u daromadlilik va davlat topshiriqlarini bajarish maqsadlarini uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda davlat tomonidan tartibga solish me'yoriy hujjatlar va davlat dasturlari orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, aralash moliyalashtirish tizimi qo'llanilib, ham o'z daromadlari, ham budjet mablag'lari ishlatiladi. Biroq, korxonalar cheklangan moslashuvchanlikka ega bo'lib, tariflar, narxlar va xarajatlar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari tor doirada bo'ladi.

Davlat korxonalarida moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: moliyaviy barqarorlik va o'zini-o'zi ta'minlashni ta'minlash, budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan maqbul foydalanish, davlat topshiriqlari va uzoq muddatli dasturlarni bajarish, xarajatlar samaradorligini oshirish hamda pul oqimining barqarorligini ta'minlash.

Shu bois, davlat korxonalarida moliyaviy rejalashtirish jamiyat va davlat oldidagi yuksak mas'uliyat bilan mablag'larni samarali boshqarish, davlat funksiyalarini bajarish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat moliya tizimida esa moliyaviy rejalashtirish budjet tashkilotlari (budjetdan mablag' oluvchilar va taqsimlovchilar)da ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda asosiy maqsad — cheklangan budjet resurslarini davlat funksiyalari va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirishdir. Jarayon murakkab va qat'iy tartibga solingan bo'lib, unda shaffoflik, nazorat va qonunchilikka qat'iy rioya etilishi ustuvor ahamiyatga ega.

Qo'shma korxonalarda moliyaviy rejalashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, rejalashtirishda barcha ta'sischi larning manfaat va maqsadlari (foyda, texnologiya, bozor) hisobga olinadi, jarayon xalqaro tabiatga ega bo'ladi, buxgalteriya hisobining turli standartlari qo'llaniladi, murakkab huquqiy shartnomalar amal qiladi. Shu bois moliyaviy reja ta'sis shartnomalari va aksiyalarni taqsimlash asosida tuziladi, moliyalashtirishda esa aralash manbalar — ustav kapitali, kreditlar, grantlar hamda hamkorlarning investitsiyalaridan foydalaniladi. Qarorlar qabul qilishda ishtirokchilar o'rtasida kelishuv zarur bo'lib, bu cheklangan moliyaviy avtonomiyani anglatadi.

Qo'shma korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning asosiy maqsadlari — moliyaviy ehtiyojlarni aniqlash, tomonlar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash, investitsiyalarni asoslash va samaradorligini monitoring qilish, foydani taqsimlash hamda mahalliy va xalqaro qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlashdir.

Qo'shma korxona moliyaviy rejasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- Korxona budjeti — jami daromad va xarajatlar rejasi;
- Investitsiya rejasi — hamkorlar o'rtasida investitsiyalarni taqsimlash;
- Foyda va zarar prognozlari — rentabellik va dividendlar hisob-kitobi;
- Pul oqimini baholash uchun moliyaviy model.

Jarayonda ichki va tashqi audit talablariga asoslangan hisobot va nazorat, shuningdek, soliq rejalashtirish va turli yurisdiksiyalarda soliq optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, moliyaviy rejalashtirishda qo'shma korxonaning asosiy maqsad va strategiyalarini kelishish, ta'sischi larning hissalarini aniqlash (pul, aktivlar, texnologiya), operatsion va investitsiya faoliyatini rejalashtirish,



foyda va zararlarni taqsimlash tizimini belgilash, rejaning bajarilishini nazorat qilish hamda zarurat bo'lganda qayta ko'rib chiqish zarur.

Moliyalashtirish manbalari sifatida ta'sischiarning hissalar, bank kreditlari va ularni o'z vaqtida qaytarish imkoniyati, davlat subsidiyalari va xalqaro yordam dasturlari, xorijiy investitsiyalar hamda aksiya yoki obligatsiyalarni joylashtirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy rejalashtirish – iqtisodiy boshqaruvning muhim bo'g'ini bo'lib, davlat, korxona va uy xo'jaliklari darajasida moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash va samarali foydalanishni ta'minlaydi. U ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivoji, bandlikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish va aholi farovonligini yaxshilash kabi ustuvor maqsadlarga xizmat qiladi. Moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy tizimning barqaror ishlashi, daromad va xarajatlar muvozanati, risklarni boshqarish va uzoq muddatli strategik rivojlanishga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Taklif etiladigan choralar:

Huquqiy bazani mustahkamlash – moliyaviy rejalashtirishni tartibga soluvchi qonun va me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish.

Shaffoflikni ta'minlash – davlat va korxona budjetlari hamda moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni kuchaytirish.

Raqamlashtirishni jadallashtirish – moliyaviy rejalashtirishda elektron tizimlar, sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan keng foydalanish.

Risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish – moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun sug'urta, rezerv fondlar va anti-inqiroz dasturlarini joriy etish.

Investitsiya muhitini yaxshilash – xususiy va xorijiy kapitalni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va kafolatlar yaratish.

Ijtimoiy samaradorlikka e'tibor qaratish – moliyaviy rejalarda bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyani qo'llab-quvvatlashni asosiy vazifa sifatida belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондаренко Т.Г., Солтаханов А.У. Необходимость финансового планирования в условиях современной экономики // Инновационная наука. 2017. № 2-1. С. 164- 168.
2. Вишар С. П. Современные проблемы финансового планирования предприятий системы потребительской кооперации в России // Символ науки. 2016. № 6. С. 160-163.
3. Демин С. С., Зинченко А. С., Черкасов М. Н. Особенности финансового планирования производственных процессов на предприятиях машиностроения // Вестник университета. 2016. № 5. С. 130-132.
4. Зайцева И.С. Роль финансового планирования в формировании финансовой политики корпорации // Политика, экономика и инновации. 2016. № 8 (10). С. 1- 4.
5. Лаенко О.А. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях // Вестник Прикамского социального института. 2016. С. 52-55.
6. Нехаичук Ю. С., Борисовская А. П. Об организации финансового планирования на промышленном предприятии // Символ науки. 2016. № 9. С. 117-121
7. Янковская В. В. Планирование на предприятии: Учебник / В. В. Янковская. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. – 425 с.
8. Казмина И. В., Смолюнинова И. В., Щеголева Т. В. Символ науки. 2016. № 4. С. 83–84.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
